



IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALARNING KREATIV IQTISODIYOTDAGI O'RNI

PhD Akbarova Barno Shuxratovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-3354-5395

b.akbarova@tsue.uz

Akbarova Kamola Abdujabbor qizi

Ulug'bek nomidagi Toshkent xalqaro maktabi

ORCID: 0009-0009-2707-2577

komolaakbarova05@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada kreativ iqtisodiyot, inklyuziv iqtisodiyot, inklyuziv ta'lim va imkoniyati cheklangan shaxslar kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati yoritib berilgan, hamda imkoniyati cheklangan talabalarning kreativ iqtisodiyot sohalarida ishtirokini oshirishga oid yo'nalishlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: kreativ iqtisodiyot, inklyuziya, inklyuziv iqtisodiyot, inklyuziv ta'lim, inklyuziv yondashuv, inklyuziv jamiyat, inklyuziv madaniyat, imkoniyati cheklangan shaxslar.

РОЛЬ СТУДЕНТОВ-ИНВАЛИДОВ В КРЕАТИВНОЙ ЭКОНОМИКЕ

PhD Акбарова Барно Шухратовна

Ташкентский государственный экономический университет

Акбарова Камола Абдуджаббаровна

Ташкентская международная школа имени Улугбека

Аннотация. В статье раскрыта сущность таких понятий, как креативная экономика, инклюзивная экономика, инклюзивное образование и лица с ограниченными возможностями, а также направления повышения участия студентов с ограниченными возможностями в сферах креативной экономики.

Ключевые слова: креативная экономика, инклюзия, инклюзивная экономика, инклюзивное образование, инклюзивный подход, инклюзивное общество, инклюзивная культура, люди с ограниченными возможностями.

THE ROLE OF DISABLED STUDENTS IN THE CREATIVE ECONOMY

PhD Akbarova Barno Shukhratovna

Tashkent State University of Economics

Akbarova Kamola Abdujabbarovna

Tashkent international school named after Ulugbek

Abstract. The article explains the essence of such concepts as creative economy, inclusive economy, inclusive education and persons with disabilities, as well as directions for increasing the participation of students with disabilities in the fields of creative economy.

Keywords: creative economy, inclusion, inclusive economy, inclusive education, inclusive approach, inclusive society, inclusive culture, persons with disabilities.

Kirish.

Bugungi kunda butun jahonda bo'lgani kabi, mamlakatimiz iqtisodiyoti sohalariga ijodiy yondashuv va g'oyalarga, innovatsion yangilanishlar va intellektual salohiyatlarga asoslangan iqtisodiy o'zgarishlar, ya'ni kreativ iqtisodiyot deb atalgan yangi yo'nalish kirib kelmoqda. Ushbu yo'nalish mamlakatimizda iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish, mehnat bozorini rivojlantirish, ayniqsa, ijodiy qobiliyatga ega iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning kreativ tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun bir qator imkoniyatlar yaratadi.

Yurtimizda kreativ iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish va ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi (Qonun, 2024). Ushbu Qonun mamlakatimiz iqtisodiyotining yanada rivojlanishiga, bu boradagi yangi imkoniyatlarni ishga solishga hizmat qiladi.

Qonun qabul qilinishi bilan bir vaqtda kreativ iqtisodiyot bo'yicha IV Butunjahon konferentsiyasi o'tkazildi. "Inklyuziv kreativlik – o'zgaruvchan reallik" mavzusidagi ushbu konferentsiyada kreativ iqtisodiyotning kelajagi, ya'ni eng yangi texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan bog'liq ijtimoiy va iqtisodiy muammolar, hamda barqaror kelajakni shakllantirishda kreativ industriyalarning o'rni kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

O'zbekiston mezbonlik qilgan ushbu konferentsiya *inklyuziv* va *barqaror* iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishi, shuningdek, sun'iy intellekt kabi texnologiyalar bu sohadagi tartib-qoidalarni o'zgartirishi uchun maxsus munozara platformasi bo'lib hizmat qildi. Munozaralar davomida dunyodagi madaniy va kreativ sanoatlar har yili tahminan 2,3 trillion dollar daromad keltirishi, global YaIMning 3,1 foizi aynan kreativ iqtisodiyot hissasiga to'g'ri kelishi, hamda dunyodagi ish bilan band aholining 6,2 foizi ushbu sohaga to'g'ri kelayotganligi va shu sababli *kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish naqadar dolzarb* ekanligi ko'rsatildi.

O'zbekiston iqtisodiyotida kreativ iqtisodiyotning ulushi katta miqdorni tashkil qilmasada, lekin tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda kreativ industriya sohasiga oid 9600 ta korxona mavjud bo'lib, ularda 84 ming nafar xodim faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimiz aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, kreativ iqtisodiyot yoshlar uchun yangi ish o'rinlari yaratish va ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz yoshlarining intellektual salohiyatini, iqtidori va ijodiy g'oyalarini ro'yobga chiqarish uchun ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda sharoit yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu tufayli zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarining o'rni nihoyatda muhimdir, chunki ta'lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki intellektual salohiyatni, innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.

Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini 18 dan 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etgani uchun kreativ industriya sohasidagi kadrlarni tayyorlash va kasbiy-iqtisodiy bilimlarni beruvchi ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash kabi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari e'tiborga loyiqdir. Bilim olishda barcha yoshlar teng huquqqa ega bo'lgan, hamda aholisining bir millionga yaqini imkoniyati cheklangan yoshlarni (nogironlar) tashkil etgan yurtimizda ularning oliy ma'lumot olish imkoniyatlarini yaratish va kreativ iqtisodiyotdagi faolligini ta'minlash hozirgi davr ijtimoiy-iqtisodiy dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Ushbu davlat siyosatining yanada e'tiborli joyi shundaki, bugungi kunda respublikamizda imkoniyati cheklangan yoshlarni oliy ma'lumot bilan qamrab olish muammosi, ularning o'qishi uchun tegishli sharoitlarni yaratish borasida bajariladigan ishlar "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash" O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida (Farmon, 2019) ko'rsatib berilgan.

Kontseptsiyada oliy ta'lim muassalarida imkoniyati cheklangan talabalarning kasbiy, kreativ va iqtisodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish hamda ularni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhitga *uyg'unlashtirish (inklyuziya)* borasida keng qamrovli chora-tadbirlar aniq ifodalab berilgan.

Imkoniyati cheklangan yoshlarning ijodkorlik va innovatsion g'oyalarini aniq iqtisodiy sohalarga tadbiriq qilishda jahon yoshlarining ilg'or tajribalarini, zamonaviy, ijodiy va innovatsion yutuqlarini hayotga tadbiriq etish hamda kreativ iqtisodiyot bo'yicha xalqaro hamkorlik qilish maqsadida "Inklyuziv kreativlik – o'zgaruvchan reallik" mavzusidagi kreativ iqtisodiyot bo'yicha IV Butunjahon konferentsiyaning ahamiyati kattadir. Imkoniyati cheklangan yoshlarning ushbu maqsadlarga erishishi uchun ularga inklyuziv ta'lim xizmatlarini, ayniqsa, intellektual qobiliyatini va kasbiy kompetentligini oshiruvchi oliy ta'lim bilan qamrovni hamda ular uchun qulay sharoitlarda faoliyat yuritishni ta'minlovchi kreativ industriyada ishtirokini, umuman aytganda *inklyuziv ta'lim* va *inklyuziv iqtisodiyotga* e'tibor kuchaytirish lozimdir.

Adabiyotlar sharhi.

Kreativ iqtisodiyot ushbu sohada faoliyat yurituvchi yoshlardan ijodiy fikrlash, yangi g'oyalar va original yechimlar yaratish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishni talab etadi. Iqtisodchi olim Ataniyazov (2024) fikricha, kreativ iqtisodiyotning afzalligi shundaki, u insonlarga, ayniqsa, yoshlarga o'z ijodkorlik va innovatsion salohiyatini namoyon etish, g'oyalarni aniq iqtisodiy qiymatga aylantirish uchun platforma sifatida xizmat qiladi. Ataniyazov kreativ iqtisodiyot dunyodagi mamlakatlarning iqtisodiy o'sishida muhim ro'l o'nayotganligini tahlili natijasida shunday deydi:

"Bu sohada 300 milliondan ortiq kishi band bo'lib, milliy iqtisodiyotlarda kreativ industriyaning ulushi yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 3-5 foizini tashkil qiladi. Joriy o'sish sur'atlari va ushbu sektorning dunyo iqtisodiyotidagi ahamiyatini hisobga olgan holda kelgusi 10-15 yil ichida ushbu sektor jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizini tashkil etish prognoz qilinmoqda" (Ataniyazov, 2024).

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham kreativ va innovatsion sohalarda, ayniqsa, madaniyat va san'at sohasida kreativ tadbirkorlikni rivojlantirishga, ya'ni ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini hamda aholining turmush darajasi va farovonligini oshirishga qaratilgan bir qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodchi-pedagog Dusmuhammedov (2023) nima uchun iqtisodiyotda kreativlikni rivojlantirish kerakligi va ushbu jarayonda *kreativ tadbirkorlik*ning ro'li haqida shunday deydi:

"Kengroq mazmunda kreativ tadbirkorlik madaniyat va san'at sohalarining boshqa ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlari bilan o'zaro bog'langan holda foyda keltiradi. Masalan, madaniy turizm har doim ham sayyohlarning qaysidir mamlakatga tashrif buyurishiga sabab bo'libgina qolmay, balki boshqa bir qator tutash tarmoqlar (savdo, logistika, mehmonxona biznesi, umumiy ovqatlanish va hokazo)ga iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi.

Kreativ tadbirkorlik odatiy tadbirkorlik faoliyatidan nimasi bilan farq qiladi? Nima uchun yangi tushunchalarni kiritish kerak edi? Gap shundaki, kreativ tadbirkorlik odatiy ishlash me'yorlaridan tubdan farq qilib, u katta mahorat, harakatchanlik va doimiy izlanish, o'rganish qobiliyatini talab qiladi" (Dusmuhammedov, 2023).

Kreativ iqtisodiyotning O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni haqida pedagog-tadqiqotchilar Abdullayeva va Eshqobilova (2024) o'z maqolasida kreativ iqtisodiyot tushunchasi, uni rivojlantirish bosqichlari va jahon tajribasi asosida O'zbekiston iqtisodiyotida joriy etilishi haqida so'z yuritadi.

Kreativ iqtisodiyotda imkoniyati cheklangan talabalar muhim rol o'ynashi mumkin. Ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyatda faol ishtirokini ta'minlash orqali iqtisodiyotning ushbu sohasiga sezilarli hissa qo'shishlarini tashkillashtirish mumkin.

O'zbekistonda imkoniyati cheklangan yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida yoshlar yetakchisi Xabibullayeva (2024) o'z maqolasida bunday yoshlarning hayotdagi o'rnini oshirish, ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash va rivojlanishiga ko'maklashish muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatib berilgan.

Kreativ iqtisodiyot imkoniyati cheklangan talabalar uchun nafaqat ish bilan ta'minlash, balki ularning ijtimoiy-huquqiy integratsiyasini rag'batlantirish vositasi hisoblanadi.

Tadqiqotchi Rashidova (2023) o'z maqolasida davlat tomonidan ushbu yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, islohotlar va ularning natijalari haqida tahliliy fikrlar bildiradi.

Tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda respublikamizdagi imkoniyati cheklangan shaxslarni tarbiyalash, o'qitish, kasb-hunarga yo'naltirish, jamiyatga uyg'unlashtirish kabi masalalar davlat siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi, chunki ushbu yo'nalish ularning moddiy ehtiyojlarini qondirish hamda farovon hayot kechirish uchun eng maqbul yo'nalishlardan biridir. Imkoniyati cheklangan shaxslarni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faolligini oshirishga hizmat qiladigan maqbul yo'nalishlaridan yana biri ularning ijodiy qobiliyatlarini yuksaltiruvchi kreativ iqtisodiyot sohalarida faol ishtirok etishidir.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida tadqiqotimiz maqsadini quyidagicha ta'riflash mumkin:

- kreativ iqtisodiyot bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va tushunchalarning mazmun-mohiyatiga, O'zbekiston umumiy iqtisodiyotida kreativ iqtisodiyotning ulushiga, inklyuziv iqtisodiyotni xususiyatlari va ahamiyatiga hamda inklyuziv ta'lim vazifalari va uni tashkil etishga oid adabiyotlarni tahlili natijasida imkoniyati cheklangan talabalarning kreativ iqtisodiyotda ishtirokini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berishdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalga oshirishda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishga va imkoniyati cheklangan talabalarning kreativ industriya sohalarida ishtirokini oshirishga oid huquqiy-normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarni hamda ushbu yo'nalishda iqtisodchi – pedagog olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy ishlari qiyosiy tahlili natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

"Kreativ iqtisodiyot to'g'risidagi" qonunda kreativ iqtisodiyot sohasidagi *asosiy tushunchalar* (1-bob, 3-modda) aniq izohlab berilgan:

kreativ iqtisodiyot — ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek innovatsiyalarga hamda texnologiyalarga asoslangan inson salohiyati natijasida iqtisodiy qimmatga ega bo'lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratishga qaratilgan iqtisodiyot tarmog'i;

kreativ industriya — ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek intellektual mulk ustuvorligiga asoslangan va iqtisodiy qimmatga ega bo'lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratish, ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va ilgari surish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlarining majmui;

kreativ industriya parki — O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida eksteritoriallik printsiplari asosida kreativ industriya sohalarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida faoliyat olib boradigan tashkiliy-huquqiy tuzilma;

kreativ industriya sub'ektlari — kreativ mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va ilgari surish bilan shug'ullanadigan jismoniy va yuridik shaxslar;

kreativ mahsulot — kreativ iqtisodiyot sohasida iqtisodiy qimmatga ega bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), shuningdek boshqa fuqaroviy-huquqiy bitimlar obyektlari.

Kreativ industriya sohalaridagi *faoliyat yo'nalishlari* 15 ta bo'lib, yo'nalishning (1-bob, 10-modda) har biri quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– adabiy ijodni;

- amaliy san’at va hunarmandchilikni;
- arxitektura, loyihalashtirish va urbanistikani;
- audiovizual san’atni;
- ijrochilik san’atini;
- kontsert-tomosha faoliyatini va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etishni;
- moda va dizayn san’atini;
- muzeylar, badiiy galereyalar (ko’rgazmalar), axborot-kutubxona faoliyatini;
- nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyatni;
- ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladigan ijodiy faoliyatni;
- prodyuserlik faoliyatini;
- raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyatni;
- reklama sohasidagi ijodiy faoliyatni;
- san’at ashyolari va madaniy meros obyektlarini asrashga doir faoliyatni;
- tasviriy san’atni.

Qonunda kreativ iqtisodiyot sohasidagi *davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari* (2-bob, 11-modda) belgilab qo’yilgan. Binobarin, qonunda kreativ iqtisodiyot uchun zarur infratuzilma yaratish va uni tizimli rivojlantirish, kreativ industriya sohalarida qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni qo’llab-quvvatlash hamda kreativ g’oyalarni va loyihalarni amalga oshirishda ko’maklashish, kreativ mahsulotlar yaratishda texnologiya yutuqlaridan va innovatsion yondashuvlardan foydalanish, soha ishtirokchilarining ijodiy salohiyati va imkoniyatlarni rivojlantirish maqsadida ta’lim tizimini takomillashtirish kabi davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlari belgilab qo’yilgan.

Qonunda kreativ iqtisodiyot sohasidagi *ta’limni qo’llab-quvvatlashning amalga oshirish shakllari* (4-bob, 20-modda) ham ko’rsatib berilgan. Ular quyidagilardan iborat:

kreativ industriya sohalaridagi kadrlarni tayyorlashga, qayta tayyorlashga va ularning malakasini oshirishga doir davlat ta’lim standartlarini hamda ta’lim dasturlarini takomillashtirish;

kreativ industriya sohalaridagi ta’lim tashkilotlari faoliyatini qo’llab-quvvatlash;

kreativ industriya sohalarida dual ta’limni qo’llab-quvvatlash, shu jumladan nazariy bilimlar va amaliy ko’nikmalarning uzviy bog’liqligini ta’minlash;

etakchi xalqaro ta’lim tashkilotlari bilan birgalikda sohaga oid ixtisoslashtirilgan qo’shimcha ta’lim dasturlarini yaratish;

o’quv-uslubiy, ilmiy va amaliy adabiyotlarni yaratish.

Mazkur Qonunda kreativ industriya sohalarida uchun kadrlarni tayyorlashda kreativ industriya parklari va klasterlari, raqamli dasturlar va platformalar, art-rezidentsiyalar shakllaridagi yagona ekotizim yaratilishi nazarda tutilgan. Demak, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish insonning iqtisodiy bilim va kompetentsiyalarini yuksaltiruvchi ma’lum darajadagi iqtisodiy bilimlarga ega ijodkor kadrlarni tayyorlashga bog’liqdir, chunki iqtisodiy bilimlar va malakalar asosida yangi g’oyalar va rejalar generatsiya bo’ladi.

Ma’lumki, insonlarning hayoti tabiatdagi moddiy resurslarning mavjudligiga va ularni qayta ishlash natijasida moddiy mahsulotlar hamda turli jihozlar ishlab chiqarishga bog’liqdir. Vaqt o’tgan sari resurslar kamayishi oqibatida ishlab chiqarish darajasi pasayadi, iqtisodiyotda cheklovlar paydo bo’ladi. Kelajak iqtisodiyotida kutilayotgan bunday kamchiliklarni oldini olish kreativ g’oyalar hisobiga, o’z navbatida yoshlarda kreativ kompetentsiyalarni rivojlantirish hisobiga bo’lishi mumkin. Ushbu mulohaza bo’yicha professor Ataniyazov (2024) “Yangi O’zbekiston” gazetasidagi maqolasida quyidagi fikrni bildiradi:

“Kreativlik rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishga ta’sir qiluvchi eng muhim omilga aylanib bormoqda. Chunki kreativlik nomoddiy xususiyatga ega bo’lsa-da, yangi original g’oyalar tufayli qo’shimcha mehnat va kapital sarflanmay, ishlab chiqarish darajasini oshirishga imkon beradi. Kreativ iqtisodiyotda inson qobiliyati va malakasiga qo’yiladigan talablar ishlab chiqarish jarayonida ularga qo’yiladigan talablardan farq qiladi. Ya’ni ishlab chiqarish jarayoni

odamlardan maxsus ijodiy qobiliyatni talab qilmaydi. Kreativ sektor esa, aksincha, aqlli g'oyalar bilan ishlaydi. Sohada faoliyat yurituvchi hodimlardan ijodiy fikrlash, yangi g'oyalar, original yechimlar yaratish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish talab etiladi. Shuning uchun kreativ iqtisodiyotni shakllantirishda muhim o'rin tutadigan kasbiy tayyorgarlikning yuqori darajasi asosiy talablardan biridir”.

Demak, kreativ iqtisodiyotni kengaytirish va rivojlantirish yangi g'oyalarni shakllantirishga, bu esa o'z navbatida insonning kreativ-iqtisodiy qobiliyatiga asoslanadi (Akbarova, 2024).

Kreativ iqtisodiyot bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili natijasida quyidagi tushunchalarni qisqacha ifodaladik:

kreativlik – shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi *ijodiy qobiliyati* ma'nosini ifodalaydi;

kreativ kompetentlik – shaxsning ijodiy yaratishga imkon beradigan intellektual, hissiy, ahloqiy, irodaviy va shu kabi ko'p omilli sifatlarini belgilaydi hamda turli xil original, nostandart, foydali g'oyalar va mahsulotlarni tubdan yangi darajada ishlab chiqarishga imkon beradigan bilim va ko'nikmalarga egaligini, shuningdek, ularning moslashuvchanligi, insonning turli hayotiy va kasbiy vaziyatlarda ijodiy harakat qilishga loyqligini ko'rsatadi.

Kreativ iqtisodiyotga oid tushunchalarning mazmun-mohiyatini tahlili asosida shuni aytish mumkinki, kreativ industriya sohalari imkoniyati cheklangan yoshlarning faoliyat yuritishi maqbul bo'lgan sohalardir, chunki kreativ iqtisodiyot asosan adabiyot va san'at, hamda hizmat ko'rsatish va servis kabi og'ir jismoniy mehnatni emas, balki ko'proq aqliy mehnatni talab qiladigan sohalarni o'z ichiga olgan iqtisodiyot hisoblanadi. Ushbu sohani rivojlantirish imkoniyati cheklangan yoshlarning ishga bandligi va oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, qisqacha aytganda, inklyuziya muammosini hal qilishga hizmat qiladi.

Inklyuziya tushunchasi haq-huquqlari bir xil, ammo imkoniyatlari bir xil bo'lmagan shaxslarga tegishli bo'lib, hamma uchun teng imkoniyatlar va sharoitlar yaratilishiga qaratilganligini anglatadi. Ushbu tushuncha faqat sog'lig'ida nuqsonlari bor shaxslarga xos bo'lmay, balki boshqa millat vakillariga nisbatan bag'rikenglik (tolerantlik), xalqaro hamkorlik munosabatlarini teng huquqlarda olib borish kabi sharoitlar yaratilishiga qaratilgandir.

Imkoniyati cheklangan yoshlarning qobiliyatlarni rivojlantirish uchun avvalo inklyuziv ta'limni sifatli tashkil etish zarur. *Inklyuziv ta'lim* – bu alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun barcha ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan innovatsion ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'limning *ahamiyati* qo'yidagilardan iborat:

- barcha ta'lim oluvchilarning teng huquqli ta'lim olishiga imkon yaratadi;
- barcha ta'lim oluvchilarga o'z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi;
- jamiyatda ijtimoiy tenglik va hamjihatlikni mustahkamlaydi;
- bag'rikenglik munosabatlarini ta'minlaydigan muhitni shakllantiradi;
- iqtisodiyot va jamiyat uchun ko'proq malakali mutaxassislar tayyorlashga yordam beradi.

Imkoniyati cheklangan yoshlarning moddiy ehtiyojlarini qondirish va farovon hayotini ta'minlash uchun ular faoliyat yuritadigan sohalarda ham inklyuziya bo'lishi, ya'ni inklyuziv iqtisodiyot bo'lishi lozim.

Inklyuziv iqtisodiyot – bu barcha insonlar uchun teng imkoniyatlar va foyda yaratishga qaratilgan iqtisodiyot turi. Unda jamiyatning barcha qatlamlari, jumladan, kam ta'minlanganlar, nogironlar, teng sharoitdagi ayollar va yoshlar iqtisodiy jarayonlarda (ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish korxonalarida) faol ishtirok eta olishadi.

Inklyuziv iqtisodiyotning asosiy *xususiyatlari* quyidagilardan iboratdir: boylik va resurslarni jamiyatda adolatli taqsimlash, barqaror rivojlanish, barcha uchun qulay

imkoniyatlar yaratish, ish o'rinlarini va tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy himoya va inklyuziv siyosat.

Inklyuziv iqtisodiyotning *ahamiyati* quyidagilardan iboratdir:

- iqtisodiy o'sishni barcha qatlamlar uchun foydali qiladi;
- kambag'allik va tengsizlikni kamaytiradi;
- barqaror va adolatli jamiyat yaratishga hissa qo'shadi.

Inklyuziv iqtisodiyotni rivojlantirish uchun davlat siyosati, jamiyat, biznes va har bir inson birgalikda harakat qilishi kerak.

Tadqiqot natijalari va tahlili shuni ko'rsatadiki, insonlarning intellektual va kreativ imkoniyatlari cheklanmagan manbaa bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Agar ushbu jarayonlar inklyuziv bo'lsa, imkoniyati cheklangan yoshlarning kasbiy bilim olish va intellektual salohiyatini oshirishga bo'lgan intilishi kuchayadi hamda inklyuziv-kreativ iqtisodiyotdagi ishtiroki kengayadi. Natijada imkoniyati cheklangan yoshlarning jamiyatga qo'shilishi, uyg'unlashishi va tenglashishi tezlashadi.

Xulosa va takliflar.

Kreativ iqtisodiyot sohalari va ularda imkoniyati cheklangan talabalarning ishtirokini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagilarni keltirish mumkin:

- dunyodagi moddiy resurslarni chegarasi bor, ammo insonlardagi ijodiy g'oya va rejalarining chegarasi yo'q. Kreativ iqtisodiyot – bu ijodiy g'oyalarga asoslangan iqtisodiyotdir;
- kreativ iqtisodiyot umumiy iqtisodiyotni moddiy resurslarga bog'liq iqtisodiyotdan bilim va ijodiy g'oyalarga asoslangan iqtisodiyotga o'tishini, hamda uning xalqaro hamkorlikda barqaror o'sishini ta'minlaydi;
- kreativ iqtisodiyot yoshlarga o'z intellektual salohiyatini va ijodkorlik qobiliyatini namoyon qilish imkoniyatini beruvchi sohadir. Ommaviy axborot vositalarining rasmiy xabarlariga ko'ra, yurtimizda ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotganlarning 98 foizi yoshlardir;
- mamlakatimizda yoshlarning, ayniqsa imkoniyati cheklangan yoshlarning yangi va zamonaviy biznes yuritish, elektron tijorat kabi xizmatlar ko'rsatishning innovatsion usullarini o'rgatish hamda ularning kasbiy-kreativ kompetentsiyalarini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni joriy etishga keng e'tibor berilmoqda;
- imkoniyati cheklangan talabalarning ehtiyojlarini kasbiy-kreativ va iqtisodiy-madaniy kompetentsiyalarini rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda kreativ industriya sohalarida samarali ishtirok etish loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir;
- imkoniyati cheklangan talabalarning kreativ-iqtisodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish, sog'lom raqobatni ta'minlash va mehnatga bandlik darajasini oshirish maqsadida ularning mustaqil ishlash natijalaridan (ishlanmalardan) amaliyotda foydalanish, ya'ni ijodiy mustaqil ishni talabaning moddiy ehtiyojlarini qondiruvchi kreativ tadbirkorlik bilan birga olib borish zarur;
- imkoniyati cheklangan talabalarda kreativ-iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun talabalarning o'quv jarayonini iqtisodiyot sohalaridagi islohotlarning (ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, investitsiyalardan foydalanish, mahalliy ishlab chiqarilgan maqsulotlarni monetizatsiya va eksport qilish, mehnat samaradorligini oshirish va hokazo) mohiyati va ahamiyatini tushuntirgan holda sifatli tashkil etish metodikasini yaratish maqsadga muvofiqdir;
- imkoniyati cheklangan talabalarning iqtisodiy kompetentligini rivojlantirish maqsadida ularning kelajakdagi faoliyat yuritish sohasi bo'yicha iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish hamda muammolarni hal etishga oid seminar-treninglar, vebinarlar va konferentsiyalar tashkil etib turish lozim.

Adabiyotlar /Jumepamypa/References:

Abdullayeva M.X., Eshqobilova M.B. (2024) Kreativ iqtisodiyotning O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni //scientific-jl.org.

Akbarova S.Sh. (2024) Talabalarda iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirishning ahamiyati // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. XI son - Noyabr, – 73-78 b.

Ataniyazov J. (2024) Kreativ iqtisodiyot. U nimasi bilan afzal? //“Yangi O'zbekiston”, №186.

Farmon (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

Qonun (2024) O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 3-oktyabrda qabul qilingan “Kreativ iqtisodiyot to'g'risida”gi O'RQ-970-sonli Qonuni.

Rashidova M. Q. (2023) Yangi O'zbekistonda imkoniyati cheklangan talaba-yoshlar faoligini oshirishda yaratilgan imkoniyatlar //Ilmiy tadqiqot va innovatsiya.– T. 2. – №. 4. – C. 22-24.

Xabibullayeva D.A. (2024)Imkoniyati cheklangan yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar // vol. 32 no. 1: ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi/ 32-son / 1-to'plam.

Дусмухамедов О.С. (2023). Креатив иқтисодиёт мамлакат иқтисодиёти ривожланишининг муҳим омили сифатида //Iqtisodiyot va ta'lim.– T. 24. – №. 4. – C. 15-21.